Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

YUQORI SINF O'QUVCHILARINING MA'NAVIY KOMPETENTLIGINI JADIDCHILARNING PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

Murodjon G'aniyevich Quldashev*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi Farg'ona "Temurbeklar maktablari" harbiy akademik litseyi o'qituvchisi
✉ murodjonqoldashev4@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini shakllantirish jarayonida jadidchilik harakati vakillarining pedagogik qarashlaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Maqolada jadid pedagoglarining ta'lim va tarbiyaga oid ilg'or g'oyalari, ularning didaktik ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minotning maqsad, mazmun, metod va vositalari ishlab chiqilgan. Natijada o'quvchilarda milliy g'urur, axloqiy yetuklik va ijtimoiy faollikni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

ma'naviy kompetentlik, jadidchilik, pedagogik qarashlar, didaktik ta'minot, yuqori sinf o'quvchilari, milliy g'urur, tarbiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743307

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani o'quvchilarda nafaqat fanlarga oid bilim va ko'nikmalarni, balki ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham izchil rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy kompetentlikni shakllantirish masalasi yoshlarning mustaqil hayotga tayyorlanishi, fuqarolik pozitsiyasining qaror topishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlash nuqtai nazaridan alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Globallashuv, raqamli axborot makonining kengayishi, turli mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, ma'naviy immunitet, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari inson kapitalini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim mazmuniga uyg'unlashtirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab bermoqda. Mazkur jarayonda xalqimizning boy pedagogik merosi, xususan, jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini zamonaviy didaktik yondashuvlar bilan integratsiya qilish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Jadid pedagoglari ilgari surgan ilm-ma'rifat, axloq, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash, milliy o'zlikni anglash va shaxs kamolotiga oid g'oyalar bugungi kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi bilan mazmunan uyg'unlashadi.

Jadidchilik harakati vakillari tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar o'z davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ularni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilgan. Ularning pedagogik merosi faqat tarixiy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki zamonaviy ta'lim metodologiyasini boyituvchi muhim ilmiy manba sifatida ham e'tirof etiladi. Shu bois

ushbu meros asosida yuqori sinf o‘quvchilarining ma’naviy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik ta’minotni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadid mutafakkirlarining ma’rifiy va pedagogik faoliyati, ularning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq mazkur pedagogik merosni kompetensiyaviy yondashuv asosida, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilarining ma’naviy kompetentliginishakllantirishning didaktik mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarining ma’naviy kompetentligini jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik asoslarini tahlil qilish, ushbu jarayonning mazmuni, metodlari va vositalarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ta’lim amaliyotiga tatbiq etishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ASOSIYN QISM

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Shakuriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is’hoqxon Ibrat, Mirzo Sirajiddin Xo‘jaev, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi jadid pedagoglar o‘z davrida milliy uyg‘onish, ta’lim sifati va tarbiya jarayonida yangi yondashuvlarni taklif etganlar. Ularning didaktik qarashlari bugungi ta’limda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.[1]

Ma’naviy kompetentligini shakllantirishda quyidagi yetuk jadid pedagoglari va mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asos bo‘la oladi. Ularning har biri o‘z davrida yoshlarga ma’naviy tarbiya berishda ilg‘or g‘oyalarni ilgari surgan, bu g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Masalan Abdulla Avloniy g‘oyalari tarbiya va axloqning ahamiyati, ma’naviyat, odob, vatanparvarlik tarbiyasi, yaxshi inson tarbiyasi -jamiyat taraqqiyotining garovi.qarashlari asarlarida esa “Turkiy Guliston yoxud axloq” - axloqiy fazilatlar, ma’naviyat, halollik, to‘g‘rilik haqida yoshlarga murojaat. “Milliy tarbiya” - xalqchil, milliy va zamonaviy g‘oyalar uyg‘unligi asosida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirgan.[2]

Mahmudxo‘ja Behbudiy g‘oyalari**,** Dunyoviy fanlar bilan diniy-ma’naviy bilimlar uyg‘unligi. Ona tilini, tarixni, milliy qadriyatlarni o‘rganish. Vatanparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalari orqali yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘otish bo’lgan.[3]

Munavvarqori Abdurashidxonov g‘oyalarida Boshlang‘ichdan boshlab milliy ruhda tarbiya. Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish. O‘quvchini mustaqil fikrlashga, to‘g‘ri yashashga o‘rgatish. “Adibi avval” va “Adibi soniy” - o‘quvchilar uchun yozilgan darsliklarda axloqiy-ma’naviy tarbiya, milliy g‘urur kuchli ilgari surilgan.[4]

Abdurauf Fitrat g‘oyalarida Inson kamoloti, o‘zini anglash va ma’naviy yuksalish g‘oyalari; O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda milliy madaniyat va o‘zlikni tanishning o‘rni; Ijod, tafakkur, axloqiy tanlovlarni o‘rgatuvchi metodlar. Pedagogik maqolalarida o‘qituvchining roli va o‘quvchining ichki dunyosini tarbiyalash usullari yoritilgan.[5]

Yuqori sinf o‘quvchilarining ma’naviy kompetentligini shakllantirish uchun **Avloniy** – axloqiy tarbiyaning asoschisi sifatida, **Behbudiy** – milliy ong va ma’rifatni uyg‘otuvchi, **Munavvarqori** – zamonaviy maktab va darsliklarning tashabbuskori, **Fitrat** – shaxsiy komillik, milliy o‘zlik va tafakkur ustuni sifatida, **Cho‘lpon** – adabiy-ma’naviy uyg‘onish targ‘ibotchisi sifatida, ularning har birining pedagogik qarashlari chuqur o‘rganilishi lozim. **Sadriddin Ayniy** (Garchi tojik adibi bo‘lsa-da, u turkiy xalqlar ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.) **g‘oyalari** Bilimli, iymonli, erkin fikrlovchi inson tarbiyasi. Jaholatga qarshi kurash, ilm-ma’rifatga da’vat. Yangi usul maktablarining targ‘ibotchisi.[16]

Hoji Muin g‘oyalarida Mustaqil tafakkur, erkin jamiyat qurilishi uchun ma’naviyatli avlod zarurligi. Matbuot, maktab va adabiyot orqali axloqiy tarbiya. Jamiyatdagi nohaqliklarga qarshi tanqidiy yondashuv. Ushbu jadidlar va ularga yaqin ma’rifatparvarlarning pedagogik qarashlari. Ma’naviy va axloqiy tarbiya. Mustaqil fikrlovchi, ongli, vatanparvar shaxs yetishtirish. Ta’limda adolat, iymon, bilim va axloqiy yuksaklikni ustuvor qo‘yish, tamoyillariga asoslangan.

Is’hoqxon Ibrat Ustozlik va maktabning shaxs shakllanishidagi o‘rni. Ilmiy tafakkur, ma’rifat va axloqiy tarbiyaning muhimligi. Chet tillarini o‘rganish, dunyoqarashni kengaytirish g’oyalarini ilgari suril-

gan.[9] **Mirzo Sirajiddin Xo‘jaev** g‘oyalarida maktab – jamiyatni isloh qiluvchi asosiy muassasa. Axloqiy tarbiya orqali jamiyatdagi muammolarni hal qilish. Har bir o‘quvchi - kelajakda xalq xizmatiga tayyor bo‘lishi kerak.[12] Shunday qilib, yuqori sinf o‘quvchilari uchun ma’naviy kompetentlikni shakllantirishda quyidagi jadidlar va ularning pedagogik merosi asos qilib olinishi mumkin.

Buyuk siymolarni talqinida o’quvchilarni kompetentlikni shakllantirishga doir konseptual jadval 1

Jadid	**Asosiy tarbiyaviy g‘oya**
Abdulla Avloniy	Axloq, odob, halollik, milliy tarbiya
Mahmudxo‘ja Behbudiy	Ma’rifat, vatanparvarlik, tarixni bilish
Munavvarqori Abdurashidxonov	Milliy maktab, fikrlash, darsliklar
Abdurauf Fitrat	Insoniy kamolot, tafakkur, o‘zlikni anglash
Cho‘lpon	Ma’naviy uyg‘onish, adabiyot orqali tarbiya
Hamza Hakimzoda Niyoziy	Erkinlik, tenglik, teatr va adabiyot orqali tarbiya
Said Ahmad Siddiqiy – Ajziy	Iymon, sabr, halollik, pedagogik yetuklik
Is’hoqxon Ibrat	Ilm-ma’rifat, xorij tillari, maktab islohoti
G‘ozi Yunus	Ruhiy tarbiya, milliy qadriyatlar
Mo‘minxo‘ja Mirzohamidov	Diniy-dunyoviy bilim uyg‘unligi
G‘afur G‘ulom, G‘ozi Yunus va b.	Adabiy-tarbiyaviy vositalar orqali ma’naviy yuksalish

Yuqoridagi g’oyalarga tayangan holda yuqori sinf o‘quvchilarining ma’naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish jadidlarni 3 toifaga bo‘linib o‘rganilishi foydali bo‘ladi:

Ma’naviy kompetentlikni shakllantirishga doir konseptual jadval 2

Tarkibiy komponent	**Jadidlarning pedagogik qarashlari**	**Amaliy metod, shakl, vositalar**	**Kutilayotgan natija**
1. Axloqiy tarbiya	Abdulla Avloniy: “axloq – tarbiyaning asosi”	Darslik tahlili (“Turkiy Guliston”), rolli o‘yinlar, hikmatli so‘zlar tahlili	O‘quvchi odobli, halol, pokiza bo‘ladi
2. Vatanparvarlik	Behbudiy, Munavvarqori: milliy tarixni bilish – g‘urur manbai	Tarixiy darslar, vatan haqidagi insholar, viktorinalar	O‘quvchi vatanini sevadi, himoya qilishga tayyor
3. Iymon, e’tiqod	Ajziy, Is’hoqxon Ibrat: din va axloq uyg‘unligi	Qur’ondan iqtiboslar, diniy va dunyoviy qadriyatlar taqqoslash	Iymonli, sabrli, mas’uliyatli shaxs yetishadi
4. Mustaqil fikrlash	Fitrat: erkin tafakkur, tanqidiy yondashuv	Bahs-munozaralar, “Munozara” asari tahlili, muammoli vaziyatlar	Shaxsiy fikr bildiruvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi o‘quvchi
5. Milliy o‘zlikni anglash	Cho‘lpon, To‘raqulov: til, madaniyat, urf-odat – xalq ruhi	Ona tili darslarida milliy adabiyotdan foydalanish, xalq og‘zaki ijodi	O‘zligini anglagan, milliy qadriyatga sodiq avlod
6. Ijtimoiy faollik va mas’uliyat	Hamza, G‘ozi Yunus: jamiyatga foydali shaxs tarbiyasi	Ijtimoiy loyiha, to‘garaklar, ko‘ngillilik asosidagi tadbirlar	Faol, tashabbuskor, ijtimoiy ongli o‘quvchi
7. Mehnatsevarlik	Munavvarqori, Avloniy: halol mehnat tarbiyaning asosi	“Halollik saboqlari”, mehnat birlashmalari, ishchi ekskursiyalar	Mehnatni qadrlovchi, sabrli shaxs
8. Estetik did va ruhiy uyg‘unlik	Hamza, Fitrat: adabiyot va san’at tarbiya vositasi	She’r o‘qish, mushoira, teatr, dramatik sahnalar	Ichki dunyosi boy, go‘zallikka intiluvchi shaxs

Ma’rifiy jamiyat qurilishida jadidchilik g‘oyalarining roli bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘nalishlarida ma’rifiy jamiyat qurish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda jadidchilik merosidan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rinadi Zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish jadidlar ilgari surgan maktab va madrasalar islohoti hozirgi ta’lim islohotlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Matbuot va media rivoji jadidlar tomonidan

milliy matbuotning rivojlantirilishi hozirgi media savodxonligi va axborot makonining taraqqiyotiga mos keladi. Ayollar ta'limini rivojlantirish jadidlarning ayollar ta'limiga e'tibor qaratishi bugungi gender tengligini ta'minlash jarayonida ham dolzarbdir. Jahonshumul integratsiya jadidlarning xalqaro tajribadan foydalanish g'oyasi bugungi kunda xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv shaklida rivojlanmoqda. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish demokratik tamoyillar asosida ochiq va adolatli jamiyat barpo etish. Ekologik ong va barqaror rivojlanish jadidlarning taraqqiyot haqidagi g'oyalari barqarorlik va atrof-muhit muhofazasini ham qamrab olgan.

MUHOKAMA

Jadid pedagogik merosini zamonaviy ta'limga integratsiya qilish o'quvchilarda nafaqat bilim, balki milliy o'zlikni anglash va ma'naviy immunitetni kuchaytiradi. Bu jarayonda didaktik ta'minot puxta ishlab chiqilishi, o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi va interfaol metodlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jadidlar ilgari surgan "o'qituvchi shaxsiy namunasi" tamoyili bugungi kun o'qituvchilariga ham dolzarb bo'lib qolmoqda. O'quvchi tarbiyasida ustozning hayotiy pozitsiyasi va shaxsiy fazilatlari hal qiluvchi omillardan biridir.

XULOSA

Yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy kompetentlikni shakllantirishda jadidchilik pedagogik merosidan foydalanish ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Taklif etilgan didaktik ta'minot tizimi ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi orqali yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, faol, ma'naviy barkamol avlod sifatida kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy, A. (1992). *Turkiy Guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Avloniy, A. (1993). *Milliy tarbiya*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Behbudiy, M. (2011). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. (2013). *Adibi avval, Adibi soniy*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Fitrat, A. (1995). *Saylanma*. Toshkent: Sharq.
6. Cho'lpon, A. (1988). *Tanlangan asarlar*. 2 jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy. (1987). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: O'zSSR Fanlar akademiyasi.
8. Said Ahmad Siddiqiy – Ajziy. (2011). *Ta'lim-tarbiya haqida mulohazalar*. Samarqand: Zarafshon.
9. Is'hoqxon Ibrat. (2002). *Tarix, geografiya va axloqiy-pedagogik qarashlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
10. G'ozi Yunus. (2009). *Adabiy-pedagogik merosi*. Toshkent: Adabiyot uchqunlari.
11. To'raqulov, M. (2021). *Til, madaniyat va ma'naviyat masalalari*. Toshkent: Milliy meros nashriyoti.
12. Ramziy, M. (1995). *O'zbek tarixiga oid asarlaridan parchalar*. Toshkent: Fan.
13. Shakuriy, A. (2010). *O'zbek pedagogik tafakkuri taraqqiyoti*. Toshkent: O'qituvchi.
14. Qayumov, A. (2000). *Jadidlar haqida mulohazalar*. Toshkent: Sharq.
15. Jadidlar ma'rifati (Tuzuvchi: B. Qosimov). (2008). Toshkent: Ma'naviyat.
16. Rasulov, A. (2015). *Jadidchilik harakati va ta'lim-tarbiyadagi islohotlar*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
17. Ma'naviyat asoslari. (2002). Darslik. Toshkent: Ma'naviyat.
18. Mirzaolimov, H. (2021). *Yangi usul maktablar va ularning pedagogik merosi*. Andijon: Ilm ziyo.